

XURRAMOV Musurmon

*O'zbekiston xalqaro ilomshunoslik akademiyasi
Xalqaro munosabatlar kafedrası dotsenti v.b.,
t.f.f.d (PhD)*

YANGI MARKAZIY OSIYODA MINTAQAVIY HAMKORLIK VA INTEGRATSIYA ISTIQBOLLARI

PROSPECTS FOR REGIONAL COOPERATION AND INTEGRATION IN THE NEW CENTRAL ASIA

ПЕРСПЕКТИВЫ РЕГИОНАЛЬНОГО СОТРУДНИЧЕСТВА И ИНТЕГРАЦИИ В НОВОЙ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

Annotatsiya: Ushbu maqola Markaziy Osiyoda mintaqaviy hamkorlik va integratsiya jarayonlarining yangi bosqichini tahlil qiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbuslari asosida siyosiy muloqotning institutsional shakllanishi, iqtisodiy hamkorlikning faollashuvi, suv-energetika masalalarida qo'shma mexanizmlarning yo'lga qo'yilishi, xavfsizlik va madaniy-gumanitar integratsiyaning istiqbollari ko'rib chiqiladi. Maqolada mintaqaning barqaror rivojlanishi, xalqaro tizimdagi o'rni va kelajak istiqbollari hamkorlikning strategik ahamiyati nuqtai nazaridan ochib beriladi.

Kalit so'zlar: Markaziy Osiyo, O'zbekiston, mintaqaviy hamkorlik, integratsiya, siyosiy muloqot, iqtisodiy aloqalar, xavfsizlik, suv-energetika, madaniy diplomatiya.

Abstract: This article examines the new stage of regional cooperation and integration in Central Asia. It highlights the role of initiatives put forward by President Shavkat Mirziyoyev of Uzbekistan, which have led to the institutionalization of political dialogue, expansion of economic cooperation, establishment of joint mechanisms in water and energy management, as well as enhanced security and cultural-humanitarian integration. The study emphasizes the strategic significance of such cooperation for sustainable development of the region, its position in the international system, and future prospects.

Keywords: Central Asia, Uzbekistan, regional cooperation, integration, political dialogue, economic relations, security, water and energy management, cultural diplomacy.

Аннотация: В статье рассматривается новый этап регионального сотрудничества и интеграции в Центральной Азии. Особое внимание уделяется инициативам Президента Узбекистана Шавката Мирзиёева, в результате которых произошло институциональное оформление политического диалога, активизация экономического взаимодействия, создание совместных механизмов управления водно-энергетическими ресурсами, а также укрепление безопасности и культурно-гуманитарной интеграции. Подчеркивается стратегическая значимость данного процесса для устойчивого развития региона, его роли в международной системе и будущих перспектив.

Ключевые слова: Центральная Азия, Узбекистан, региональное сотрудничество, интеграция, политический диалог, экономические связи, безопасность, водно-энергетика, культурная дипломатия.

KIRISH

Markaziy Osiyo mintaqasi qadimdan Sharq va G'arbni bog'lovchi strategik hudud sifatida jahon sivilizatsiyasi tarixida muhim o'rin tutgan. Buyuk Ipak yo'li orqali shakllangan savdo, madaniyat va ilmiy almashinuv jarayonlari mintaq xalqlarini asrlar davomida birlashtirib kelgan. Shu bois, tarixiy jihatdan bu hududning rivojlanishi doimo qo'shni davlatlar bilan yaqin aloqalarga, savdo-iqtisodiy hamkorlikka va madaniy integratsiyaga asoslangan.

Ammo XX asr oxirida mustaqillikka erishganidan keyin Markaziy Osiyo davlatlari o'z tashqi siyosatida milliy suverenitetni mustahkamlashga ustuvor e'tibor qaratdi. Natijada, dastlabki yillarda mintaqaviy integratsiya jarayonlari sustlashdi, ayrim hollarda esa chegaraviy va resursiy masalalar bo'yicha kelishmovchiliklar yuzaga chiqdi. Mintaqa davlatlari o'rtasidagi o'zaro ishonchning yetishmasligi, siyosiy dialogning cheklanganligi hamda iqtisodiy aloqalardagi turli to'siqlar integratsiya salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarishga imkon bermadi.

Shu sharoitda O'zbekistonning yangi tashqi siyosiy konsepsiyasi, xususan, Shavkat Mirziyoyev prezidentlik faoliyatini boshlaganidan keyingi davrda boshlangan mintaqaviy ochiqlik siyosati tub burilish yasadi. Prezident nutqlarida alohida ta'kidlanganidek, Markaziy Osiyo davlatlari umumiy tarix, madaniyat va manfaatlarga ega bo'lgani uchun ularning kelajagi bir-biridan ajralmas holda qaralishi kerak.

Bu yondashuv qo'shni davlatlar bilan yaqin hamkorlikni O'zbekiston tashqi siyosatining asosiy

ustuvor yo‘nalishiga aylantirdi. Ayniqsa, BMT Bosh Assambleyasi minbaridan turib ilgari surilgan tashabbuslarda Markaziy Osiyo mintaqasini “barqarorlik, taraqqiyot va hamkorlik hududi”ga aylantirish g‘oyasi konseptual darajada asoslab berildi.

Demak, bugungi kunda Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasidagi yaqin hamkorlik va integratsiya nafaqat iqtisodiy zarurat, balki mintaqaning xavfsizlik, ekologiya, siyosiy barqarorlik va madaniy uyg‘unlik kabi dolzarb masalalarini hal etishda ham strategik ahamiyatga ega. Shu sababli, mazkur maqola Shavkat Mirziyoyevning nutqlarida ilgari surilgan tashabbuslar doirasida aynan Markaziy Osiyodagi hamkorlik va integratsiya masalalarini tahlil qilishga bag‘ishlanadi.

ASOSIY QISM

Shavkat Mirziyoyevning xalqaro minbarlarda bildirgan qarashlari va tashabbuslari ichida Markaziy Osiyo mintaqasi alohida o‘rin tutadi. Prezident nutqlarida ta’kidlanishicha, mintaqa davlatlari uchun asosiy maqsad – o‘zaro ishonch, iqtisodiy hamkorlik, xavfsizlik va madaniy yaqinlik asosida “yagona taraqqiyot makoni”ni shakllantirishdir. Quyida uning tashabbuslarida ko‘tarilgan asosiy yo‘nalishlar tahlil qilinadi.

1. Siyosiy muloqot va ishonch muhitini mustahkamlash. O‘zbekiston Prezidenti mintaqa davlatlari o‘rtasidagi siyosiy ishonchni tiklashni Markaziy Osiyo integratsiyasining boshlang‘ich nuqtasi sifatida ko‘radi. Shu maqsadda 2017-yildan boshlab Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining maslahat uchrashuvlari yo‘lga qo‘yildi. Mazkur uchrashuvlar muntazam asosda o‘tkazilib, dolzarb masalalarni ochiq muhokama qilish an‘anasini shakllantirdi[1,124].

Natijada, uzoq yillar davomida kutilayotgan chegaraviy masalalar bo‘yicha kelishuvlarga erishildi, hamkorlikni to‘siq kelayotgan ayrim siyosiy va huquqiy to‘siqlar bartaraf etildi. Siyosiy muloqotning mustahkamlanishi nafaqat davlat rahbarlari darajasida, balki parlamentlar, hukumatlar va turli vazirliklar o‘rtasidagi hamkorlikning ham kuchayishiga olib keldi. Bu esa mintaqada ishonch asosidagi diplomatiya tamoyilini shakllantirdi.

2. Iqtisodiy integratsiya va savdo aloqalarini rivojlantirish. Prezident Mirziyoyev nutqlarida iqtisodiy integratsiya Markaziy Osiyo barqarorligining asosiy ustunlaridan biri sifatida taqdim etiladi. Unga ko‘ra, mintaqa davlatlari

o‘z bozorlarini birlashtirgan holda yanada katta iqtisodiy salohiyatga ega bo‘lishi mumkin. Shu bois, O‘zbekiston tashabbusi bilan bojxona tartiblarini soddalashtirish, chegara oldi hududlarda qo‘shma savdo zonalarini tashkil etish, qo‘shma investitsion loyihalarni amalga oshirish ishlari faollashdi[2,123].

So‘nggi yillarda mintaqaviy savdo hajmi sezilarli darajada ortdi. Masalan, 2016-yildan boshlab O‘zbekistonning qo‘shni davlatlar bilan savdosi ikki-uch barobarga ko‘paygani kuzatilmog‘da. Bu jarayonning amaliy natijasi sifatida Markaziy Osiyo davlatlari iqtisodiy jihatdan bir-biriga tobora ko‘proq bog‘lanmog‘da. Shu bilan birga, yangi transport-logistika yo‘laklari, jumladan temir yo‘l va avtomobil yo‘llarining kengayishi mintaqaning global iqtisodiy tizimga integratsiyasini jadallashtirmog‘da.

3. Suv-energetika resurslarini boshqarishda hamkorlik. Suv-energetika masalasi Markaziy Osiyodagi eng nozik va dolzarb masalalardan biridir. Mintaqa davlatlarining deyarli barchasi transchegaraviy suv havzalariga tayanadi, bu esa resurslarni boshqarishda hamkorlikni talab qiladi.

Mirziyoyev o‘z nutqlarida “hamkorlik orqali manfaatdorlik” tamoyilini ilgari surdi. Bu tamoyil biror davlatning manfaatini ustun qo‘yish emas, balki barcha tomonlar uchun maqbul bo‘lgan mexanizmlarni ishlab chiqishni nazarda tutadi. Shu asosda suv resurslarini taqsimlash bo‘yicha qo‘shma komissiyalar tashkil qilindi. Bunday yondashuv ekologik muammolarni kamaytirish, iqlim o‘zgarishi sharoitida suv resurslaridan oqilona foydalanish hamda mintaqada barqarorlikni ta’minlash uchun muhim qadam hisoblanadi[3,185].

4. Xavfsizlik va barqarorlikni ta’minlash. Geosiyosiy jihatdan murakkab hududda joylashgan Markaziy Osiyo xalqaro xavfsizlik muammolarining kesishgan nuqtasi hisoblanadi. Prezident Mirziyoyev nutqlarida mintaqaviy xavfsizligini mustahkamlash uchun davlatlar birgalikda harakat qilishi lozimligi ta’kidlanadi.

Terrorizm, diniy ekstremizm, narkotrafik va transmilliy jinoyatchilik kabi xavf-xatarlar umumiy tahdid bo‘lib, ularni faqat hamkorlik orqali bartaraf etish mumkin. Shu ma’noda, O‘zbekiston mintaqaviy davlatlari o‘rtasida xavfsizlik sohasida hamkorlikni kengaytirishga chaqirdi. Shuningdek, Afg‘onistondagi vaziyat ham Markaziy Osiyo xavfsizligi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, O‘zbekiston ushbu davlatda tinchlik jarayonlarini qo‘llab-quvvatlash tashabbusini ilgari surmog‘da[4,214].

5. Madaniy-gumanitar yaqinlikni kuchaytirish. Prezident Mirziyoyev tashabbuslarida madaniy diplomatiya alohida o'rin egallaydi. Unga ko'ra, Markaziy Osiyo xalqlarining birligi faqat siyosiy va iqtisodiy manfaatlarga emas, balki madaniy-gumanitar aloqalarga ham tayanishi zarur.

Bu yo'nalishda bir qator tashabbuslar amalga oshirildi: talaba almashinuvi dasturlari, qo'shma ilmiy tadqiqotlar, madaniyat haftaliklari va sport musobaqalari. Shu bilan birga, "Markaziy Osiyo madaniy merosi haftaligi" kabi loyihalar xalqlar o'rtasidagi tarixiy umumiylikni eslatib, do'stlik aloqalarini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Madaniy hamkorlikning kengayishi nafaqat xalqlar o'rtasida yaqinlikni kuchaytiradi, balki kelajak avlod ongida ham "yagona mintaqa" g'oyasini shakllantirishga zamin yaratadi[5,232].

Amaliy natijalar

Shavkat Mirziyoyev tashabbuslari asosida Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida oxirgi yillarda integratsiya jarayonlari yangi sifat bosqichiga ko'tarildi. Bu jarayon nafaqat siyosiy va diplomatik aloqalarda, balki iqtisodiy, xavfsizlik va madaniy-gumanitar sohalarida ham o'zining aniq natijalarini ko'rsatmoqda. Quyida eng muhim yutuqlar tahlil qilinadi.

1. Siyosiy muloqotning institutsional shakllanishi. 2017-yildan boshlab Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining maslahat uchrashuvlari muntazam o'tkazib kelinmoqda. Mazkur format mintaqa tarixida ilk bor davlat rahbarlari o'rtasida tizimli muloqotni yo'lga qo'ydi. Shu uchrashuvlar davomida:

- chegara masalalarida aniq kelishuvlarga erishildi,

- qo'shni hududlarda hamkorlikni kuchaytirish bo'yicha qo'shma hujjatlar qabul qilindi,

- xalqaro maydonda mintaqaviy pozitsiyalarni muvofiqlashtirish amaliyoti shakllandi.

Natijada, Markaziy Osiyo mintaqasi "qarama-qarshilik hududi" emas, balki "hamkorlik va barqarorlik hududi" sifatida tanila boshladi[6,217].

2. Savdo-iqtisodiy hamkorlikning keskin faollashuvi. Sh.Mirziyoyev tashabbuslari natijasida O'zbekiston va qo'shni davlatlar o'rtasidagi savdo hajmi sezilarli darajada ortdi. Masalan, 2016-yildan keyin qisqa muddat ichida O'zbekistonning Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston bilan savdo aylanmasi ikki-uch barobarga oshdi. Bu o'zgarish bojxona tartiblarining soddalashtirilishi,

tranzit to'siqlarining qisqartirilishi va chegara oldi hududlarda savdo yarmarkalarining yo'lga qo'yilishi bilan bevosita bog'liq.

Shuningdek, transport-kommunikatsiya sohasida ham katta qadamlar tashlandi: yangi temir yo'l va avtomobil yo'llari ochildi, mintaqa orqali o'tuvchi xalqaro transport yo'laklari modernizatsiya qilindi. Bu o'z navbatida Markaziy Osiyoning global iqtisodiyotga integratsiyasini jadallashtirmoqda.

3. Suv-energetika sohasida hamkorlik mexanizmlarining yo'lga qo'yilishi. Mintaqadagi eng murakkab masalalardan biri bo'lgan suv-energetika muammolarida ham ijobiy siljishlar kuzatildi. O'zbekiston tashabbusi bilan suv resurslarini birgalikda boshqarish bo'yicha qo'shma komissiyalar faoliyati yo'lga qo'yildi[7,75]. Amaliyotda:

- transchegaraviy daryolardan foydalanish bo'yicha kelishuvlar ishlab chiqilmoqda, suv va energiya almashinuvi mexanizmlari takomillashtirilmoqda,

- ekologik barqarorlikni ta'minlash uchun qo'shma monitoring dasturlari ishga tushirildi.

Bu chora-tadbirlar mintaqa xavfsizligi va barqaror rivojlanishi uchun strategik ahamiyat kasb etadi.

4. Xavfsizlik sohasida qo'shma yondashuv

Oxirgi yillarda Markaziy Osiyo davlatlari xavfsizlik sohasida ham o'zaro yaqinlashdi[8,12]. Xususan:

- terrorizm va ekstremizmga qarshi kurash bo'yicha qo'shma harakat dasturlari ishlab chiqildi,

- chegara xavfsizligini ta'minlash bo'yicha axborot almashinuvi kengaydi,

- narkotrafik va transmilliy jinoyatchilikka qarshi hamkorlik mexanizmlari yo'lga qo'yildi.

O'zbekistonning Afg'onistondagi tinchlik jarayonlarini qo'llab-quvvatlash tashabbuslari mintaqaning umumiy xavfsizligini mustahkamlashda muhim o'rin tutmoqda[9,14].

5. Madaniy-gumanitar integratsiyaning kengayishi. Madaniy-gumanitar sohada ham sezilarli yutuqlarga erishildi[10,126]. Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida:

- "Markaziy Osiyo madaniy merosi haftaligi" kabi qo'shma tadbirlar o'tkazildi,

- yoshlar, talabalar va olimlar o'rtasida almashinuv dasturlari kengaydi,

- qo'shma ilmiy loyihalar va arxeologik ekspeditsiyalar amalga oshirildi,

- turizm sohasida qo'shma loyihalar ishga tushirildi.

Bunday tashabbuslar xalqlar o'rtasida do'stlik rishtalarini mustahkamlab, mintaqaning "madaniy uyg'unlik makoni" sifatidagi qiyofasini mustahkamlamoqda.

XULOSA

Yuqoridagi natijalar shuni ko'rsatadiki, Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbuslari Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi integratsiyani nafaqat nazariy konsepsiya, balki amaliy jarayonga aylantirdi. Siyosiy muloqotning institutsional shakllanishi, iqtisodiy aloqalarning keskin faollashuvi, suv-energetika muammolarida hamkorlik mexanizmlarining yo'lga qo'yilishi, xavfsizlik sohasida umumiy yondashuv va madaniy-gumanitar integratsiyaning kengayishi – bularning barchasi mintaqada yangi tarixiy davr boshlangani va integratsiya jarayonlari orqaga qaytmas bosqichga kirganidan dalolat beradi.

So'nggi yillarda Markaziy Osiyo mintaqasida kuzatilayotgan o'zgarishlar Shavkat Mirziyoyev tashabbuslari bilan bevosita bog'liq. U ilgari surgan g'oyalar va tashqi siyosatdagi ochiqlik tamoyili mintaqada integratsion jarayonlarni qayta faollashtirdi va davlatlar o'rtasidagi ishonch muhitini tikladi. Siyosiy muloqotning muntazam yo'lga qo'yilishi, iqtisodiy hamkorlikning keskin kengayishi, suv-energetika sohasida muvozanatli yondashuvning shakllanishi, xavfsizlikka oid umumiy strategiyalarning ishlab chiqilishi va madaniy-gumanitar yaqinlikning kuchayishi Markaziy Osiyoni yangi sifat bosqichiga olib chiqmoqda.

Mirziyoyev tashabbuslarida "Markaziy Osiyo – umumiy taqdir va umumiy kelajak hududi" degan konseptual g'oya asosiy o'rinni egallaydi. Bu yondashuv mintaq davlatlarini o'z manfaatlarini faqat milliy darajada emas, balki mintaqaviy va global jarayonlar kontekstida ko'rib chiqishga undaydi. Shu orqali mintaq davlatlari xalqaro maydonda bir-birini qo'llab-quvvatlash, tashqi siyosatda umumiy pozitsiyalarni ilgari surish imkoniga ega bo'lmoqda.

Amaliy natijalar shuni ko'rsatmoqdaki, mintaqaviy integratsiya endilikda orzu yoki nazariy g'oya emas, balki aniq mexanizmlar va real loyihalarga asoslangan jarayonga aylanmoqda. Bu jarayonning muhim tomoni shundaki, u "yuqoridan pastga" majburiy integratsiya emas, balki "quyidan yuqoriga" – ya'ni xalq manfaatlari, iqtisodiy zaruratlar va umumiy xavfsizlik ehtiyojlari asosida shakllanmoqda.

Kelajakda Markaziy Osiyo davlatlarining yanada chuqur integratsiyalashuvi kutilmoqda. Bunda transport-logistika tizimining rivojlanishi, yagona bozor elementlarining shakllanishi, suv-energetika resurslarini oqilona boshqarish va ekologik muammolarni birgalikda hal etish asosiy omillar bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, yoshlar va ta'lim sohasida hamkorlik kengayishi orqali mintaqada "yagona avlod" tafakkurini shakllantirish imkoniyati tug'iladi.

Umuman olganda, qo'shni davlatlar bilan yaqin hamkorlik va integratsiya O'zbekiston tashqi siyosatining markaziy ustuvorligi sifatida butun Markaziy Osiyo kelajagini belgilab bermoqda. Bu jarayonning muvaffaqiyati mintaqaning barqaror rivojlanishi, xalqaro tizimda faol o'rin egallashi va global xavfsizlikka munosib hissa qo'shishiga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh. M. (2021). Markaziy Osiyo: Hamkorlik va taraqqiyotning yangi davri. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti matbuot xizmati.
2. O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi. (2022). Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi hamkorlik mexanizmlari. Rasmiy hisobot.
3. Allison R. (2019). Geopolitical Rivalries and Regional Integration in Central Asia//International Affairs, 95(4), 935–957.
4. Bohr A. (2021). Regionalism in Central Asia: New Opportunities and Challenges. Chatham House Research Paper.
5. Collins K. (2020). Security and Regional Cooperation in Central Asia: Threats and Opportunities//Journal of Eurasian Studies, 11(3), 215–230.
6. Cornell, S. E., & Starr, F. S. (2018). Modernization and Regional Cooperation in Central Asia: Pathways to Progress. –Washington, DC: Johns Hopkins University.
7. Dadabaev T. (2021). The Revival of Regionalism in Central Asia: Uzbekistan's Initiatives and Prospects for Cooperation//Central Asian Affairs, 8(2), 145–170.
8. Laruelle M. (2019). Mapping Central Asia: Integration, Regionalism and the Global System. –London: Routledge.
9. Megoran N. (2017). Nationalism in Central Asia: A Biography of the Uzbekistan–Kyrgyzstan Boundary. –Pittsburgh: University of Pittsburgh Press.
10. Pomfret R. (2019). The Central Asian Economies in the Twenty-First Century: Paving a New Silk Road. –Princeton: Princeton University Press.